

TIL TA'LIMI VA UMUMFILOLOGIK MANBALAR

Berdiev Husan Xolnazarovich
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
nodavlat ta'lim muassasasi dotsenti

Annotatsiya: Globallashuv davrida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hozirgi ta'lim oldidagi eng dolzarb va kechiktirib bo'lmaydigan masala hisoblanadi. Nafaqat filologik yo'nalishda zamonaviy talablarga mos mutaxassislarni yetishtirish, balki har tomonlama ko'nikma va malakalarga ega avlodni tarbiyalashda tarixiy-ilmiy, ilmiy-leksikografik, badiiy-ilmiy xarakterdagi manbalarni chuqur o'zlashtirish bilan bevosita aloqadordir.

Kalit so'zlar: raqobatbardoshlik, tarixiy-ilmiy manbalar, ilmiy-leksikografik manbalar, badiiy-ilmiy manbalar.

O'zbek tili xalqning milliy ruhi va o'zligining madaniy-ma'rifiy olami, milliy g'oyasining asosi hisoblanadi. Bu til o'z xalqi bilan birga, ne-ne jafolarni boshidan o'tkazmadi. Ne-ne istilochilar tomonidan boy madaniy merosimiz bo'lgan noyob qo'lyozmalar, adabiyotlar yo'q qilindi. Millat boshida balqqan istiqlool sabab yurtga o'zligimiz bilan birga, ona tilimiz ham qaytdi. O'zbek tilining maqomi qomusimizda mustahkamlab qo'yildi. Bugun ona tilimiz nafaqat milliy makonda, balki jahon minbarlarida baralla yangramoqda.

Talaba-yoshlar tarbiyasida davlat tilini o'qitish samaradorligini oshirish, ushbu jarayonda zamonaviy metod va texnologiyalardan foydalanishning yangi tamoyillarini ta'limga tatbiq etish qanchalik muhim bo'lsa, o'quv adabiyotlari masalasi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham, bu masalaga davlat ahamiyatiga molik ish sifatida qarab kelinmoqda.

Mamlakatimizda o‘zbek tilining mavqeini rivojlantirish bo‘yicha qabul qilinayotgan qonun, qaror, farmon va dasturlar jamiyatimizda davlat tilida ish yuritish, o‘zbek tilining nufuzini yanada oshirishga, uning imkoniyatlaridan to‘laonli foydalanishimizga qaratilgandir. Chunonchi, “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 2016 yil 13 maydagi Farmonning qabul qilinishi [1], O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2019 yil 21 oktyabrdagi “O‘zbek tilining Davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tuzilmasida Davlat tilini rivojlantirish departamentining tashkil qilinishi tarixiy ahamiyatga ega. Shuningdek, Prezidentimizning nutqlari va asarlarida ham ona tilining har tomonlama ravnaq toptirish, davlat tilining nufuzini yanada oshirish ishiga da‘vat sifatida mavzuga oid muhim fikrlar bayon etilgan [2; 3].

Ushbu davlat hujjatlarining natijasi sifatida barcha sohalarda o‘zbek tilidan unumli foydalanish, ishlash tizimida davlat tilida ish faoliyatini olib borish, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini takomillashtirish maqsadida oliy ta‘lim muassasalari bakalavr ta‘lim yo‘nalishlarida “Davlat tilida ish yuritish” fani o‘quv fani sifatida o‘qitilishi yo‘lga qo‘yildi. Biroq birgina fanning qandaydir darajada o‘qitilishi bilan ko‘zlangan maqsadga yetib bo‘lmaydi. Bugungi davr talablari – ertangi kun bunyodkorlarining yozma va og‘zaki nuqini, dunyoqarashini ona tili va adabiyotga mehr bilan hamohang etish, ularda kitobxonlik ko‘nikmalarini tom ma’noda tarkib toptirish davlat tilining nufuzini oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan fanlarning ta‘lim tizimida keng o‘qitilishini taqozo etadi.

Hozir ta‘lim sifatini oshirish davr talabi. Bu borada barcha fanlardan o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini davlat tili nufuziga mos tarzda yaratish, o‘zbek tilining davlat tili sifatida qo‘llanilishini kengaytirish, rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash ishi qay ahvolda ekanligini tasavvur qilish uchun matematika yo‘nalishi talabalariga ona tili o‘qitilmagani holda filologik ta‘limda matematikaning

o'qitilayotgani, bu mantiqsizlik savodxonlikdan juda ham uzoq ekanligida ko'rish mumkin.

Zamon talablari va ehtiyojlar asosida yaratilgan yoki yaratilajak darsliklar oldiga muayyan talablar qo'yilishi tabiiy hol. Shu ma'noda, darsliklar materiallarini o'rganish masalalari ham dolzarb hisoblanadi. Ularda yoshlarni vatanparvarlik, qahramonlik, mardlik, fidokorlik, do'stlik, sadoqat, insof va adolat kabi ruhiy-ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalash g'oyasi bosh maqsad qilib olinadi, biroq, birinchi navbatda, material ustida ishlovchi – talabani og'zaki va yozma nutqi rivojiga xizmat qilishini nazarda tutish muhim masala.

Darsliklardan o'rin olgan materiallar davr talabidan kelib chiqib tayyorlangani bois ular talabalarning nutqini o'stirish, fikrlash qobiliyatlarini yanada rivojlantirish milliy istiqlol g'oyasi bilan chambarchas bog'langan milliy iftixor, vatanparvarlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik, ma'naviyatlilik, mehnatsevarlik, onglilik, insonparvarlik kabi insoniy fazilatlarni o'zida mujassam etgan matn va boshqa amaliy ishlardan to'lasincha foydalanishni talab qiladi. Bunda, shubhasiz, qadriyatlarga aloqador asarlar materiallarining tahlili o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodining ijtimoiy faolligini shakllantirish, ma'naviy barkamolligini takomil toptirishda ma'naviy qadriyatlarga oid materiallarning darsliklarda berilishi alohida ahamiyatga ega. Shu jumladan, ota-bobolarimiz turmush tarzining eng yorqin namunasi sifatida kasb turlari va ular bilan bog'liq qadriyatlarni asarlar tahlili davomida o'rganib borish ta'lim va tarbiya jarayonida kerakli samaralar beradi. Shu bilan bir qatorda, tilimiz haqidagi bilimlarimizni mustahkamlaydi. Masalan, "Devonu lug'otit turk"dagi [4] materiallarni adabiy parchalar, maqollar, hikmatli so'zlar bilan bog'liq ravishda o'rganiladigan bo'lsa, badiiy tafakkurning o'ziga xos xususiyatlari, shakllanishi va taraqqiyoti haqida yanada muhim tushunchalarga, milliy til, milliy ong, milliy mafkura uzviyligiga aloqador tasavvurlarga keng yo'l ochilishi mumkin. Zero, har qanday badiiy asar o'sha davrga xos bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy, badiiy estetik tasavvur-tushunchalar majmui sifatida namoyon bo'lishi barobarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglashga ham xizmat qiladi. Ya'ni millatlar va

xalqlarning borilg'i, nufuzi va qadriyatlari haqida betimsol ma'lumotlar beradi. Tarixan kimligimizni anglatishda til materiallari tahlil etilgan asarlarning o'rni beqiyos. Binobarin, ular bilan amaliy tarzda darslarda tanishish imkoniyati yaratilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси биринчи Президентининг 2016 йил 13 майдаги «Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетини ташкил этиш тўғрисида»ги ПФ-4797 Фармони // Халқ сўзи, 2016 йил, 17 май.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
3. Мирзиёев Ш.М. «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сонли Фармони // Халқ сўзи, 2017 йил, 8 февраль. № 28 (6722).
4. Кошғарий М. Девону луғотит турк. Уч томлик. – Т.: Фан, 1960 - 1963.